



THE ESSENCE OF PERCEPTION AND ITS SIGNIFICANCE IN UNDERSTANDING THE WORLD

Muxriddin Abdimuratovich Usmanov

Doctoral student at the National University of Uzbekistan (NUUz)

e-mail: muhridinusmanov0@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: theory of knowledge, sensation and thinking, activity of consciousness, neuropsychology, Plato, Aristotle, Descartes, Kant, Hegel, Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Ghazali, Al-Biruni, Alisher Navoi, critical thinking, global information space, worldview of youth.

Received: 16.09.25

Accepted: 17.09.25

Published: 18.09.25

Abstract: The article provides a deep philosophical and psychological analysis of the essence of perception and its significance in comprehending the world. It highlights the views of ancient thinkers such as Plato and Aristotle, the teachings of European philosophers Descartes, Kant, and Hegel, as well as the ideas of Eastern scholars including Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Ghazali, Al-Biruni, and Alisher Navoi. Definitions of perception are comparatively examined, and its connection with sensation, thinking, and consciousness is revealed. Within psychological and neuropsychological approaches, the importance of perception in decision-making, concentration, social adaptation, and critical analysis of information is analyzed. Furthermore, the article discusses the role of perception in individual and social life, particularly in shaping the consciousness of youth, and demonstrates its new dimensions in the context of globalization and digital media.

IDROKNING MOHIYATI VA UNING DUNYONI BILISHDAGI AHAMIYATI

Muxriddin Abdimuratovich Usmanov

O'zMU doktoranti

e-mail: muhridinusmanov0@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: bilish nazariyasi, sezgi va tafakkur, ong faoliyati, neyropsixologiya, Platon, Aristotel, Dekart, Kant, Gegel,

Annotatsiya: Maqolada idrokning mohiyati va uning dunyoni bilishdagi ahamiyati falsafiy hamda psixologik nuqtayi

Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Beruniy, Navoiy, tanqidiy tafakkur, global axborot makoni, yoshlar dunyoqarashi.

nazardan chuqur tahlil qilingan. Antik davr mutafakkirlari Platon va Aristotelning qarashlaridan tortib, Yevropa faylasuflari Dekart, Kant va Gegelning ta'limotlari hamda Sharq allomalari, xususan Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Beruniy va Navoiy kabi mutafakkirlarning fikrlari keng qamrovda yoritiladi. Shuningdek, idrok tushunchasiga berilgan ta'riflar qiyosiy ko'rib chiqilib, uning sezgi, tafakkur va ong faoliyati bilan bog'liqligi ochib beriladi. Psixologik va neyropsixologik yondashuvlarda idrokning qaror qabul qilish, diqqatni jamlash, ijtimoiy moslashuv va axborotni tanqidiy tahlil qilishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Qolaversa, idrok shaxs va jamiyat hayotida, xususan yoshlar ongining shakllanishida qanday rol o'ynashi misollar orqali yoritilib, bugungi globallashuv va raqamli media sharoitida uning yangi qirralari ko'rsatib beriladi.

СУЩНОСТЬ ВОСПРИЯТИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ПОЗНАНИИ МИРА

Мухриддин Абдимуратович Усманов

Докторант Национального университета Узбекистана (НУУЗ)

e-mail: muhridinusmanov0@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: теория познания, ощущение и мышление, деятельность сознания, нейropsychология, Платон, Аристотель, Декарт, Кант, Гегель, аль-Фараби, Ибн Сина, аль-Газали, аль-Беруни, Алишер Навои, критическое мышление, глобальное информационное пространство, мировоззрение молодёжи.

Аннотация: В статье представлен глубокий философский и психологический анализ сущности восприятия и его значения в познании мира. Рассматриваются взгляды античных мыслителей Платона и Аристотеля, учения европейских философов Декарта, Канта и Гегеля, а также идеи восточных учёных, в частности аль-Фараби, Ибн Сины, аль-Газали, аль-Беруни и Алишера Навои. Сравнительно анализируются определения восприятия, раскрывается его связь с ощущением, мышлением и деятельностью сознания. В рамках психологических и нейropsychологических подходов исследуется значение восприятия в принятии решений, концентрации внимания, социальной адаптации и критическом анализе информации. Кроме того, показана роль восприятия в жизни личности и общества, особенно в формировании сознания молодёжи, а также раскрываются его новые грани в условиях глобализации и цифровых медиа.

Kirish. Idrokning mohiyati va ahamiyatini o'rganish insoniyat tafakkurining qadimdan hozirgi kungacha bo'lgan asosiy muammolaridan biridir. Insonning dunyoni bilish jarayonida idrok alohida o'rin tutadi, chunki u inson tafakkuri, sezgi va ong faoliyatining uyg'unlashgan shakli sifatida mavjudlikni anglashga xizmat qiladi. Idrok falsafa va psixologiya, shuningdek, ta'lim, siyosat va madaniyat uchun ham umumiy masala sifatida dolzarbdir. Bugungi globallashuv sharoitida idrok masalasi yoshlar ongini rivojlantirishda, ularni dunyoviy va milliy qadriyatlarga sodiq, shu bilan birga global tafakkur egasi sifatida tarbiyalashda muhim falsafiy-amaliy ahamiyatga ega.

Qadimdan mutafakkirlar idrok mohiyati va uning bilish jarayonidagi o'rniga doir turli fikrlar bildirganlar. Jumladan, Aflotun "idrok sezgi bilan boshlanadi, ammo u tafakkur bilan birlashmaguncha haqiqiy bilimga aylanmaydi"[1] deb hisoblagan bo'lsa, Arastu "idrok narsalarning shaklini ongda mujassamlashtiradi va shu orqali inson ularni anglaydi" deya ta'kidlagan[2]. Idrok masalasi Yevropa falsafasi tarixida ham ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'lgan mavzulardan hisoblanadi. Masalan, R.Dekart sezgi va idrokni shubha asosida tahlil qilib, "idrok ishonchli bilim manbai bo'lishi uchun uni aql bilan sinovdan o'tkazish zarur"[3] ekanligini yozadi. I.Kant esa bilish nazariyasida idrokni ongning kategoriyalari orqali shakllanuvchi faol jarayon sifatida tushuntiradi hamda "Idroksiz tushunchalar ko'r, tushunchalarsiz idrok esa karlikdir"[4], deya izohlaydi. Bu fikr idrok va tafakkur birligini ifodalashga xizmat qiladi.

Sharq falsafasi an'analari ham idrok masalasi keng yoritilgan bo'lib, Forobiy idrokni inson bilimining asosi deb hisoblab, uni axloqiy va ijtimoiy faoliyat bilan bog'lagan: "Insonning idroki nafaqat bilishga, balki fozil jamiyat qurilishiga ham xizmat qiladi"[8]. Mazkur g'oyaning to'la anglanilishi bugungi kun jamiyatlari uchun ham juda muhim hisoblanaadi.

Imom G'azzoliy idrokni diniy-ma'rifiy asoslarda sharhlaydi, uni haqiqatni anglashga eltuvchi qalb ko'zi sifatida talqin qiladi[10]. Bu Sharq mutafakkirlarining idrokni nafaqat bilish nazariyasi, balki ma'naviy-axloqiy jarayon bilan ham bog'lashlarini ko'rsatadi.

Zamonaviy falsafa va psixologiya idrokni inson ongining eng muhim kognitiv jarayoni sifatida izohlaydi. Masalan, Stenford falsafa ensiklopediyasida idrok "sezgilardan olingan ma'lumotlarni ongda qayta ishlash va ularni yaxlit obraz sifatida anglash jarayoni" sifatida, Oksford ingliz lug'atida "atrof-muhitdagi narsalar va hodisalarni ongli ravishda qabul qilish va tushunish qobiliyati"[14] sifatida izohlaydi. Psixologiyada esa idrokning turli shakllari – vizual, audial, taktil idrok va ularning inson hayotidagi ahamiyati alohida o'rganiladi. Shaxs va jamiyat hayotida idrokning ahamiyatini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilar ekanmiz, uni dunyoni bilishning eng muhim bosqichi sifatida baholash mumkin. Chunki inson idroki orqali tashqi

olamni anglaydi, ularni ongida qayta ishlab, tafakkur va bilishga asos yaratadi. Gegel iborasi bilan aytganda “Idrok insonni narsalar va hodisalarning ichki mohiyatiga olib kiradi”.

Beruniy idrokni ilmiy bilishning asosi sifatida ko‘rib, tajriba va kuzatish orqali dunyoni to‘g‘ri anglash zarurligini ta’kidlagan. A.Navoiy esa idrokni ma’naviy komillik va qalb pokligi bilan bog‘laydi, uni adabiyot va san’at orqali shakllantirish mumkinligini aytadi va o‘z asarlarida buni yaqqol namoyon qila olgan deb ayta olamiz. Bu jihatlar Sharqona tafakkurda idrokning ilmiy, axloqiy va estetik jihatlarini birlashtirganini ko‘rsatadi.

Bugungi global jarayonlar davrida idrok va uni munosib shakllantirish(aytish mumkin bo‘lsa himoya qilish)ning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Raqamli media, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoni idrok etishida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda xavf va muammolar ham tug’dirmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida yoshlarning dunyo voqealarini to‘g‘ri idrok qilish ko‘nikmasini shakllantirish zarur. Masalan, UNESCO hisobotida “axborot oqimining tezlashuvi sharoitida yoshlar tanqidiy idrok ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari global fuqarolik tarbiyasining eng muhim vazifasidir” deyiladi[19]. Xususan, yoshlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy voqealarni to‘g‘ri idrok qilishlari ularning dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda ham idrokning aniqligi insonning qaror qabul qilishdagi muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omil ekanligi ko‘p bora tilga olinadi. Demak, idrok nafaqat bilish nazariyasi, balki inson va jamiyat barcha jabhalariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi universal jarayondir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Idrok masalasi falsafaning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida qadimdan o‘rganib kelinmoqda. Antik davr faylasuflari idrokni inson bilish faoliyatining markaziy bo‘g‘ini deb qarashgan bo‘lsa Sharq falsafasi, xususan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida idrokning bilish, axloqiy va ma’naviy jihatlarini uyg‘un holda talqin qilingan.

Yevropa falsafasi tarixida esa idrok tushunchasi turlicha talqin qilingan. Dekart idrokni shubha konsepsiyasi asosida tahlil qilib, sezgilarning ko‘p hollarda yolg‘on ma’lumot berishini qayd etgan. Uningcha, “idrok ishonchli bilim manbai bo‘lishi uchun uni aql bilan sinovdan o‘tkazish zarur”[3]. XX asrda fenomenologiya oqimi idrok masalasini yanada chuqurlashtirdi. Merlo-Ponti idrokni faqat ong mahsuli emas, balki “tananing dunyo bilan uzviy integratsiyasi” sifatida talqin etgan[7].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda idrok tushunchasiga ko‘proq psixologik va kognitiv jihatdan e’tibor qaratiladi. Masalan, Nesser idrokni axborotni qayta ishlash nazariyasi asosida tushuntiradi va u “ongda stimullarni filtrlash va qayta kodlash mexanizmi” sifatida ta’riflaydi.

Maqolada tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-tahliliy yondashuvga tayangan.

Natijalar. Qadimgi yunon mutafakkirlari idrokni insonning borliqni anglashdagi boshlang'ich bosqichi sifatida izohlab, uni tafakkur bilan birga olib qarashgan. Platon sezgidan olingan taassurotlarni chin bilimga aylantirishda tafakkurning zarurligini uqtirgan bo'lsa, Aristotel idrokni narsa va hodisalarning shaklini ongda mujassamlashtiruvchi jarayon sifatida talqin etgan. Bu yondashuvlar idrokni sezgi va tafakkur o'rtasidagi vosita sifatida tushunishga zamin yaratdi.

Yevropa falsafasi Dekart idrokni shubha konsepsiyasi asosida tahlil qilib, sezgilar aldaydigan manba bo'lishi mumkinligini ta'kidlab, bilimning ishonchliligi aql bilan tekshirilishini zarur deb hisoblagan. I.Kantning bilish nazariyasi esa idrokni ongning faol kategoriyalari bilan bog'lab, uni bilimning shakllanishidagi asosiy mexanizm sifatida tushuntirdi. Uning "idroksiz tushunchalar ko'r, tushunchalarsiz idrok esa karlikdir" degan ta'rifida idrok va tafakkur o'rtasidagi dialektik birlik aniq ifodalanadi [6]. Gegel esa idrokni ruhning o'z-o'zini anglash bosqichi sifatida talqin qilgan va uni insonni narsalar va hodisalarning ichki mohiyatiga olib kiruvchi jarayon deb baholagan. Bu qarashlar idrokni nafaqat sezgi jarayoni, balki ongning faoliyati bilan uzviy bog'liq falsafiy kategoriya sifatida ko'rsatadi.

Sharq mutafakkirlari, xususan Markaziy Osiyo allomalari idrok masalasiga o'ziga xos yondashuvni taklif qilganlar. Forobiy idrokni fozil jamiyat qurilishiga xizmat qiluvchi vosita deb baholagan. Ibn Sino idrokni sezgi idroklari va aqliy idrokka ajratib, uni psixologik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilgan va inson bilish jarayonidagi o'rnini aniqlab bergan[9]. G'azzoliy idrokni qalb ko'zi bilan bog'laydi, haqiqatni anglashning diniy-ma'naviy asosini yoritib bergan. Beruniy esa idrokni kuzatuv va tajribaga asoslangan ilmiy bilishning poydevori sifatida izohlagan. Navoiy inson ma'naviy komilligi idrok jarayonining to'g'ri shakllanishiga bog'liq ekanini isbotlashga harakat qiladi. Sharq mutafakkirlarining qarashlarida idrok axloqiy, diniy va estetik jihatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan fenomen sifatida yondashiladi.

Zamonaviy psixologiya va kognitiv fanlarda idrok ongning eng muhim jarayonlaridan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Xususan, neyropsixologik tadqiqotlarda idrok miya faoliyatining markaziy jarayoni sifatida ko'rib chiqilib, u qaror qabul qilish, diqqatni jamlash va ijtimoiy moslashuv kabi jarayonlarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Bu tadqiqotlar idrokning falsafiy mohiyatidan tashqari, uning ilmiy-empirik jihatlarini ham yoritib beradi.

Bugungi global jarayonlar idrok masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Ayniqsa, raqamli media va axborot oqimining kuchayishi sharoitida yoshlar uchun voqealarni to'g'ri idrok qilish, yolg'on xabarlarini aniqlash, manipulyatsion harakatlardan saqlanish, axborotni tanqidiy tahlil qilish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu jarayonni UNESCO XXI asr ta'limining eng muhim vazifasi deb belgilagan. Shunday ekan, idrok bugungi kunda nafaqat falsafiy yoki psixologik muammo, balki global axborot maydonida insonning mustaqil va ongli faoliyatini ta'minlaydigan amaliy ko'nikma sifatida ham talqin qilinmoqda.

Muhokama. Idrok masalasi haqida turli davrlarda bildirgan qarashlar bir-biridan sezilarli darajada farq qilgan bo'lsa-da, umumiy mazmunda insonning dunyoni bilish faoliyatida idrokning muhim bosqich ekanligi ta'kidlab kelingan. Antik davrda Platon idrokni sezgidan tafakkurga o'tuvchi vosita sifatida talqin etib, chin bilimni faqat tafakkur orqali hosil qilish mumkinligini ta'kidlagan. Aristotel esa idrokni narsalarning shaklini ongda mujassamlashtiruvchi jarayon sifatida tasvirlagan. Ushbu qarashlardan ko'rinadiki, qadimgi yunon mutafakkirlari idrokni sezgi organlari va aqlning birligi orqali tushunishga uringanlar. Bu g'oya keyingi falsafiy tafakkurga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Yevropa falsafasida Dekart, I.Kant, Gegel o'z qarashlarida idrokni nafaqat sezgi yoki tasavvur mahsuli, balki ongning faoliyatini namoyon etuvchi jarayon sifatida ham tushunishgan. Yevropa falsafasida idrok inson tafakkurining eng muhim bosqichi sifatida alohida o'rin oldi.

Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyo falsafasi idrokni o'ziga xos tarzda, ya'ni faqatgina bilish nazariyasi emas, balki axloqiy va ma'naviy jarayonlar bilan uzviy aloqada talqin qilgan. Bunday Sharqona yondashuv mazkur tushunchani yanada boyitdi va uni keng qamrovli falsafiy tushuncha sifatida shakllantirdi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda idrok falsafiy kategoriya sifatida qanchalik muhim bo'lsa, psixologik va neyrobiologik tadqiqotlarda ham shunchalik asosiy mavzu ekanligini isbotlab berdi.

Jamiyat miqyosida idrok masalasining ahamiyati alohida e'tiborga loyiqdir. UNESCO ta'kidlaganidek, axborot oqimining tezlashuvi sharoitida yoshlar tanqidiy idrok ko'nikmalariga ega bo'lmasalar, global fuqarolik tarbiyasida yetarli darajada faol ishtirokchi bo'la olmaydilar. OECD hisobotida idrok shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida zarur kognitiv kompetensiya ekanligi aytiladi. Siyosatshunos R. Dal idrokni fuqarolarning siyosiy institutlarda ishtirok etishi uchun zarur omil sifatida ko'rsatgan[21]. Bu qarashlar jamiyat hayotida idrokning nafaqat individual, balki ijtimoiy barqarorlik va mamlakat taraqqiyotdagi o'rnini ko'rsatadi.

Global axborot makonining rivojlanishi va raqamli media jarayonlari idrok masalasini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda yoshlarning voqealarni to'g'ri idrok qilishlari, soxta xabarlar taniy olishlari va axborotni tanqidiy tahlil qilishlari hayotiy zaruratga aylandi. Shu sababli idrok masalasi endilikda nafaqat falsafiy va psixologik muammo, balki yoshlarning global axborot oqimida o'z o'rnini topishi va mustaqil fikrlashini ta'minlaydigan ijtimoiy-amaliy jarayon sifatida qaralmoqda.

Idrok masalasini qiyosiy tahlil qilishdan kelib chiqadigan eng muhim jihat shundaki, u tarixiy va zamonaviy manbalarda har doim insonning dunyoni bilishdagi markaziy bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Bular esa idrokni universal va ko'p qirrali fenomen sifatida tushunishga olib keladi. Umumiy qilib aytganda, idrok insonning bilish faoliyatida, uning ma'naviy va ijtimoiy hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi jarayondir. U shaxsning dunyoqarashini

shakllantiradi, ijtimoiy institutlarda faol ishtirokini ta'minlaydi, jamiyat barqarorligi va taraqqiyotida asosiy rol o'ynaydi. Bugungi global sharoitda esa idrok yoshlarning mustaqil fikrlashini, ijodiy rivojlanishini va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi eng muhim jarayon sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa. Idrok masalasi inson tafakkurida eng qadimiy va eng dolzarb mavzulardan biri sifatida qadimdan hozirgi kungacha tadqiq etib kelinmoqda. Qadimgi yunon faylasuflari idrokni sezgi va tafakkur o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida izohlab, uni bilish jarayonining ajralmas qismi deb baholaganlar. Bu qarash keyingi davr falsafasiga ham kuchli ta'sir ko'rsatib, idrokni inson ongining markaziy fenomeni sifatida tushunishga asos vazifasini o'tadi.

Yevropa falsafasi tarixida idrokning turli talqinlari shakllangan. Dekart sezgilarning ba'zan noto'g'ri ma'lumot berishini qayd etib, bilimning ishonchliligini aql orqali tekshirilishi zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, Gegel uni ruhning o'z-o'zini anglash jarayoni sifatida talqin qilgan. Ushbu qarashlar idrokni nafaqat sezgi, balki ongning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon sifatida tushunishga olib keladi. Sharq mutafakkirlari, Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Beruniy, Navoiy idrokni nafaqat bilish, balki axloqiy va ma'naviy jarayonlar bilan uzviy aloqada talqin qilgan.

Zamonaviy psixologiya va neyropsixologiya idrok tushunchasini yanada kengaytirdi. Bu tadqiqotlar idrokni qaror qabul qilish, diqqatni jamlash va ijtimoiy moslashuvda hal qiluvchi ahamiyatga ega jarayon sifatida tushunish imkonini berdi.

Bugungi axborot oqimi kuchaygan davrda yoshlarning tanqidiy idrok ko'nikmalarini shakllantirish global fuqarolik tarbiyasining eng muhim vazifalaridan biri sifatida baholanmoqda. Idrokning to'g'ri shakllanishi shaxsning ijtimoiy faoliyati, mustaqil fikrlash qobiliyati va qaror qabul qilishdagi muvaffaqiyati bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois, idrok masalasi bugungi kunda nafaqat falsafiy va psixologik, balki ijtimoiy-siyosiy muammo sifatida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, idrok inson tafakkurining markaziy jarayonlaridan biri bo'lib, uning mohiyati qadimdan zamonaviy davrgacha turlicha talqin qilingan. Biroq barcha qarashlarda idrok dunyoni bilishning eng muhim bosqichi sifatida e'tirof etilgan. U shaxsning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Globallashuv va raqamli media sharoitida esa idrokning to'g'ri shakllanishi yoshlarning mustaqil fikrlashi, ijodiy rivojlanishi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi eng muhim omil bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Plato. Theaetetus. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – 235 p.
2. Aristotle. De Anima (On the Soul). – Oxford: Clarendon Press, 1986. – 297 p.

3. Descartes, R. *Meditations on First Philosophy*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 132 p.
4. Kant, I. *Critique of Pure Reason*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 785 p.
5. Hegel, G. W. F. *Phenomenology of Spirit*. – Oxford: Oxford University Press, 1977. – 593 p.
6. Husserl, E. *Ideas Pertaining to a Pure Phenomenology*. – Dordrecht: Springer, 1983. – 451 p.
7. Merleau-Ponty, M. *Phenomenology of Perception*. – London: Routledge, 2002. – 606 p.
8. Forobiy, A. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 180 b.
9. Avicenna (Ibn Sino). *Kitab al-Nafs (The Book of the Soul)*. – Leiden: Brill, 2013. – 410 p.
10. Al-Ghazali. *The Incoherence of the Philosophers*. – Brigham Young University Press, 2000. – 248 p.
11. Beruniy, A. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. – Toshkent: Fan, 1968. – 280 b.
12. Navoiy, A. *Xazoyin ul-maoniy*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 452 b.
13. Йулдошев, А. (2023). Значение кластерного подхода в образовании. *Miasto Przyszlosci*, 31.
14. Oxford English Dictionary. Entry: "Perception." – Oxford: OUP, 2020. – [Elektron resurs]. URL: <https://www.oed.com/view/Entry/139880>
15. Neisser, U. *Cognitive Psychology*. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1967. – 255 p.
16. Ibrokhimov, F. A. (2025). POSSIBILITIES OF USING EFFECTIVE MODERN METHODS IN TEACHING PHILOSOPHICAL SCIENCES. *Экономика и социум*, (6-2 (133)), 2045-2049.
17. Kosslyn, S. M.; Rosenberg, R. S. *Psychology: The Brain, the Person, the World*. – Boston: Pearson, 2006. – 624 p.
18. Bekinov, O. T. (2025). THE IMPACT OF CYBERSPACE AND HUMAN-TECHNOLOGY INTEGRATION ON SOCIAL LIFE: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS. *Экономика и социум*, (6-2 (133)), 2036-2040.
19. UNESCO. *Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the 21st Century*. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 98 p. – [Elektron resurs]. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000232993>

20. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 456 p. – [Elektron resurs].
21. Dahl, R. A. On Democracy. – New Haven: Yale University Press, 1998. – 217 p.